

**QADIMGI TURKCHA AYRIM TIBBIY ATAMALARNING  
O‘ZBEK TILIDA SAQLANISH HOLATI**

**Ro‘ziev Navro‘z**

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** mazkur maqolada qadimgi turkcha ayrim tibbiy atamalarning o‘zbek tilida saqlanish holati tahlil qilinadi. Yakunda, muallif tomonidan tegishli xulosa beriladi.

**Kalit so‘zlar:** qadimgi turkcha atamalar, o‘zbek tili, tarix, jamiyat.

**СОХРАНЕНИЕ НЕКОТОРЫХ ДРЕВНИХ ТЮРКСКИХ  
МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКИСТАНСКОМ ЯЗЫКЕ**

**Розиев Навруз**

Ташкентская медицинская академия  
Преподаватель кафедры общественных наук

**Аннотация:** в статье анализируется сохранение некоторых древнетюркских медицинских терминов в узбекском языке. В заключение автор приводит соответствующие выводы.

**Ключевые слова:** древнетюркские термины, узбекский язык, история, общество.

**THE STATE OF PRESERVATION OF SOME ANCIENT TURKISH  
MEDICAL TERMS IN THE UZBEKISTAN LANGUAGE**

**Ro‘ziev Navro‘z**

Tashkent Medical Academy  
Teacher, Department of Social Sciences

**Abstract:** This article analyzes the state of preservation of some ancient Turkic medical terms in the Uzbek language. In the end, the author gives relevant conclusions.

**Keywords:** *ancient Turkic terms, Uzbek language, history, society.*

Turkiy tillar orasida o‘zbek tili o‘zining o‘nlab shevalarga boyligi bilan alohida ajralib turib, qarluq turkchasi asosidagi o‘zbek adabiy tili bilan birga turkiylarning eng yirik tarmoqlaridan bo‘lmish o‘g‘uz va qipchoq lahjalarining o‘zbekcha ko‘rinishlari mavjudligi bu tilning yanada boy tilga aylanishiga xizmat qilgan. Bu holat ayniqsa xalq tabobati bilan bog‘liq qadimgi turkcha o‘nlab so‘z, atama va iboralarning o‘zbek tili va shevalarida deyarli o‘zgarishga uchramasdan yetib kelganida ko‘zga tashlanadi.

Bundan ming yilcha oldin yozilgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” (Turkiy so‘zlar lug‘ati) asarida va Onado‘li turklarining Saljuqiylar davri (X – XIII asrlar)ga tegishli yozma manbalarda uchraydigan tibbiyot bilan bog‘liq atamalarning, ayniqsa, kasallik turlariga aloqador so‘z va iboralarning o‘zbek shevalarida saqlanib qolgani diqqatni o‘ziga tortadi. Quyida ulardan ayrimlarini keltirib o‘tamiz:

**1. Ovsil** – qoramollarning og‘iz bo‘shlig‘ida bo‘ladigan kasallik. \*Ovsil yomon, yiqitadi molni [Nafasov 2011: 200]. Eski Onado‘li turkchasida **avşil** “sigirlarning tilida va oyog‘ida paydo bo‘ladigan kasallik turlaridan biri” [Doğan 2017: 45]. Qizig‘i shundaki, bu kasallik turi o‘zbeklarning chorvador aholisi so‘zlashuv tilida yaxshi saqlanib qolgan bo‘lib, Chiroqchi tumani qipchoq shevasida bu so‘z nafaqat sigirlarning og‘iz bo‘shlig‘ida uchraydigan, balki oyog‘ida ham paydo bo‘ladigan kasallik turi sifatida ochiqqlanadi. Bu jihatdan u Onado‘li turklaridagi ma‘nosi bilan bir xil ma‘noda qo‘llanayotganini aytib o‘tish kerak. Shuningdek, Onado‘li turkchasiga eng yaqin tillardan biri bo‘lgan ozarbayjonchada bu so‘z **avsal**, ozarbayjon shevalarida **öysəl** ko‘rinishlarida

uchrab, ma'nosi "sigirning og'iz kasalligi" ma'nosida ishlatiladi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida yoki boshqa turkiy so'zliklarda qayd etilmagan bu so'z o'g'uz turklarining rivojlangan o'rta asrlarda yozilgan "Kitobi Dada Qo'rqu" dostonida uchrashi diqqatni o'ziga tortadi [Tanrıverdi 2006: 244].

2. **Yuragi tushmoq.** Ayrim o'zbek qishloqlarida bezovtalanish, ruhan o'zini bezovta his qilish ma'nosida "yuragi tushmoq" iborasi qo'llanilib, xalq tabobati bilan shug'ullanuvchi maxsus kishilar – "baxshi"lar bunday dard bilan murojaat qilgan kishilarning "yuragini solib qo'yish", "yuragini ko'tarish", ya'ni "yuragini joyiga solish" kabi davolash usullarini qo'llagan hollar ko'p uchraydi. Bu kasallik ko'proq ayollar va yosh bolalarda uchrab, "yurak soldirgan" kishilar guyoki o'zlarini "tuzalib ketgan" hisoblaydilar. Zamonaviy tibbiyotda bu holat taxikardiya yoki xafaqon deb nomlanib, ko'proq qon bosimining oshishi bilan bog'liq holat deb qaraladi. O'zbek tilida yurak o'ynog'i, yurak o'ynashi, yurak siqishi deb ham yuritiladigan bu kasallik turi bilan bog'liq amaliyotlar uyg'ur xalq tabobatida keng tarqalgandir. Uyg'urlar bu holat bilan bog'liq 8 ta holat borligini aytib, ularning turlicha davlolari borligini ilgari suradilar.

Eski Onado'li turkchasida **yürek oynaması** "Hafaqon, yurak urishi, yurak siqilishi, nafas torligi", ya'ni nafas yetishmovchiligi degan ma'nolarda qo'llanilgan [Doğan 2017: 49].

3. **Qorako'r** - qorong'ida ko'zi ko'rmaydigan, shabko'r; qorong'ida ko'rmaydigan (tovuq) [Nafasov 2011: 425]. Ayrim o'zbek shevalarida ko'zi yaxshi ko'rmaydigan kishilarga nisbatan qo'llaniladigan bu so'z eski Onado'li turkchasida **ķaraķı** "Tavukkarası, gece görememe rahatsızlığı", ya'ni "tunda yaxshi ko'rmaslik  
SJIF:5.219

kasalligi” degan ma’noni bildirgan [Doğan 2017: 50]. Mahmud Koshgʻariy “**qaragʻu** – koʻr kishi” deb ochiqqlagan bu soʻz keyinchalik birmuncha maʼno oʻzgarishiga uchragan chamasi [Koshgʻariy 1960, I: 417]. Shu oʻrinda oʻzbek tilida koʻzi koʻrmaydigan kishilarga nisbatan “**qori**” soʻzi qoʻllanilishi, biroq bu soʻzning eski turkcha **qaragʻu** bilan bogʻliqligi yoki aksinchaligi aniqlanmagan.

4. **Tish gʻichirlatish** – kishilarning uyqu chogʻida tishlarini gʻichirlatish holati (koʻpincha tunda). Bu holat eski Onadoʻli turkchasida **dişi kırcıldatmak** “Tunda uxlash chogʻida tishlarini gʻichirlatish” deb ishlatilgan [Doğan 2017: 46].

5. **Oyiqmoq** - bemorlikdan tuzalmoq, sogʻayib oyoqqa turmoq. \**Oyigʻip ketti bolasi* [Nafasov 2011: 203]. Oʻzbek shevalarida **oyiq-**, ayiqmoq, oyiqmoq koʻrinishlarida uchraydigan bu soʻz “Devonu lugʻatit turk”da **azigʻ / adigʻ** – mastlikdan hushyor boʻlgan kishi” deb ochiqqlagan [Koshgʻariy 1950, I: 94].

6. **Terlama** – kuchli isitma chiqarish, qaltirash bilan xarakterlanadigan ogʻir yuqumli kasallik. Tifning bir turi [OʻTIL 2008: 72-73]. Eski Onadoʻli turkchasida **derleme ~ derletme** “Tifo hastalığı” degan maʼnoda qoʻllanilgan [Doğan 2017: 50].

Shu bilan birgalikda, oʻzbek tili va shevalarida inson aʼzolari bilan bogʻliq bir qator qadimgi soʻzlar uchrab, ular “Devonu lugʻatit turk” va eski Onadoʻli soʻzliklarida qayd etilgan. Ulardan ayrim oʻrnaklar keltirib oʻtsak:

1. **Esh** – qoʻy, echki, sigir kabi hayvonlarning qornida bolani saklab turgan yoʻldosh [Nafasov 2011: 382]. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida bu soʻz “oʻrtoq, hamroh, yoʻldosh, sherik” deb ochiqqlanishi bilan birga oʻzbek shevalarida “Bola tugʻilgandan keyin tushadigan qobiqning qoldigʻi, esh” deb keltirilgan [OʻTIL

2008: 63]. Eski Onado‘li turkchasida **o‘g‘lan e‘si** / **o‘g‘lan i‘si** “Bola tug‘ilgandan keyin keladigan oxirgi yo‘ldosh” ma‘nosida qo‘llanilgan [Do‘gan 2017: 45].

2. **Yonbosh ilik** – son suyagining ustki qismi (son suyagi). O‘zbek qipchoq shevalarida **janbash** (jonbosh) **jillik** deb ham ishlatiladigan bu so‘z eski Onado‘li turkchasi **yan b‘asi** “Kal‘a kemi‘ginin ‘st kismi”, ya‘ni son suyagining ustki qismi ma‘nosida qo‘llanilgan [Do‘gan 2017: 44].

3. **Julun** - umurtqa pog‘onasi ichidagi mag‘iz, xarommag‘iz [Nafasov 2011: 109]. “Devonu lug‘atit turk”da “**yulun** – bo‘yin so‘ngagi ichidagi oq ilik, harom mag‘iz” deb ochiqqlangan [Koshg‘ariy 1963, III: 30].

4. **Ucha** - dumg‘azaning yon tomoni, odam dumbasi [Nafasov 2011: 219]. Mahmud Koshg‘ariy “**ucha** – orqa” deb keltirgan bu so‘z [Koshg‘ariy 1: 114] bu so‘z eski Onado‘li turkchasida “**uca** / **uca**: oturak yeri, kic‘, kaba et”, ya‘ni “(insonning) o‘tiradigan a‘zosi, orqa, dumba” ma‘nolarida qo‘llanilgan [Do‘gan 2017: 49].

Xullas, o‘zbek tili va shevalari qadimgi turkcha so‘zlarning katta qismini o‘zida saqlab qolgan bo‘lib, bu holat ayniqsa, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida va ushbu asardan biroz keyin yozilgan Onado‘li turkchasi muhitiga xos adabiy asarlarda uchraydigan ko‘plab so‘zlarning tilimizda asl ko‘rinishida va o‘sha ma‘nolarida saqlanib qolgani misolida o‘z tasdig‘iga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Koshg‘ariy, Mahmud. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu-lug‘ot it-turk) / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. 3 tomlik. – Toshkent: Fan, 1960–1963.

2. O‘TIL – O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A. Madvaliev tahriri ostida. Toshkent, 2008.
3. Nafasov T. Qashqadaryo o‘zbek xalq so‘zlari lug‘ati. Toshkent: Muharrir, 2011.
4. Doğan A. T. Türklerin Dünyasından Uzaklaşan Türkçe Tip Terimleri: Eski Anadolu Türkçesinden Türkiye Türkçesine // SUTAD, Güz 2017; (42). – S. 37-57.
5. Tanrıverdi A. “Kitabı Dədə Qorqudun söz dünyası”. Bakı, 2006.